



## MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK VAZIFALARI

Qo'qon davlat universiteti dotsenti, Pedagogika fanlari doktori (DSc)  
**Xushnazarova Ma'mura Nodirovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim pedagog-tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashning pedagogik vazifalari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar :** modernizatsiyalash jarayoni, kasbiy faoliyat, zamonaviy kompetensiya, menejer-mutaxassis, kasbiy rivojlanish, pedagogik jarayon.

**Аннотация:** В данной статье обоснованы педагогические задачи развития профессиональной деятельности педагогов-воспитателей дошкольного образования и подготовки специалистов, обладающих современными компетенциями.

**Ключевые слова:** процесс модернизации, профессиональная деятельность, современная компетенция, специалист-менеджер, профессиональное развитие, педагогический процесс.

**Abstract:** This article substantiates the pedagogical tasks of developing the professional activities of preschool educators and training specialists with modern competencies.

**Keywords:** modernization process, professional activity, modern competence, manager-specialist, professional development, pedagogical process.

O'zbekiston Respublikasida takomillashtirilgan "Ilk qadam" Davlat dasturi asosida Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish, bolalarni har tomonlama intellektual, psixologik, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan isloh qilish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib borish; tashkilot guruhlarida bolalar yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va faollik markazlarini zarur o'quv-metodik, didaktik materiallar bilan ta'minlash, ulardan samarali foydalanishini ta'minlash; tashkilotda tarbiyalanuvchilarning intellektual, psixologik, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini kuzatish, baholashga doir ma'lumotlarni umumlashtirish, kuzatuv xaritalarini yuritilishini nazorat va tahlil qilish olingan natijasiga ko'ra aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish masalalari

P.Yusupova, F.R.Qodirova, Sh.Shodmonova, Sh.Sodiqova, D.Babeva, G.E.Djanpeisova, N.Abdullaeva, M.Berdieva, N.Rejametova kabi pedagog, psixolog va faylasuflar tomonidan o’rganilgan.

Pedagog-tarbiyachilarda kasbiy rivojlanishni ta’minlash, ularni pedagogik jarayonlarni samarali boshqarishga o’rgatish uchun mustaqil bilim olish ko’nikmalarini mustahkamlashga erishish lozim. Zamonaviy pedagog-tarbiyachi quyidagi kasbiy sifatlarga ega bo’lishi kerak:

- Nazariy-empirik fikrlash;
- Turli murakkablik darajasiga ega bo’lgan kasbiy masalalarni yechishga intilish;
- Kreativ fikrlash tajribasiga ega bo’lish;
- Pedagogik hodisalarni tahlil qilish va ularga ob’ektiv yondashish;
- Amalga oshiriladigan pedagogik harakatlarning aniqligini ta’minlash;
- Mantiqiy, izchil xulosalar chiqarish;
- Aniq pedagogik tafakkurga ega bo’lish;
- Maktabgacha ta’lim jarayonida ta’lim-tarbiya vositalaridan samarali foydalanishga intilish;
- Pedagogik jarayonlarda o’ziga xos fikrlash operatsiyalarini bajara olish kabilar.

Zamonaviy maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarning sifati va samaradorligini ta’minlashga intilish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarning samaradorligini ta’minlashda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahorati, boshqaruvchilik salohiyati alohida ahamiyatga ega. Bo’lajak pedagog-tarbiyachilarga g’oyaviy-siyosiy bilimlarni taqdim etish jarayonida kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga erishish talab qilinmoqda. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish bilan bog’liq talab va ehtiyojlar asosida mahoratli pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash ularda kasbiy qiziqish, ehtiyoj va layoqatlarni shakllantirish orqali amalga oshadi.

Maktabgacha ta’limni modernizatsiyalash jarayonida pedagog-tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish talab qilinadi. Buning uchun maktabgacha ta’lim dasturlarining tarkibiy tuzilishini davlatning ta’limni mazkur bo’g’ini oldiga qo’yan talablari asosida takomillashtirish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli ta’lim bilan ta’minlash uchun ta’lim jarayonini modernizatsiyalash nihoyatda zarur hisoblanadi. Buning uchun bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qiladigan barcha pedagogik texnologiyalarni uyg’unlashtirish va o’zaro mujassamlashtirish talab etiladi.

Maktabgacha ta’limning sifati ta’limning keyingi bosqichlarida bolalarning bilimlarni sifatli o’zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarini modernizatsiyalashga oid yagona talablarni ishlab chiqish, ushbu talablar sifatli ta’lim va tayanch ko’nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bu talablar asosida bolalarga ta’lim berish erta bolalik davridan boshlanadi va uzluksiz davom etadi.

Pedagog – tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishning xususiyatlarini o’rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin :

- ijodiy faoliyatga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o’zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo’llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko’rsata olishi;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o’z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma’noda ta’lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni taxlil asosida aniqlash.
2. Mo’ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash.
3. O’zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O’zgarishlarni amalga oshirish.

Pedagog-tarbiyachining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o’z ustida ishlash ko’nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, ularni mashg’ulotlar davomida samarali qo’llay olish malakasini takomillashtirish zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog - tarbiyachilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi muayyan tarkibiy qismlarga ega bo’lib, ular bir-birini to’ldiradi va oliy pedagogik ta’lim jarayonida muntazam rivojlanadi. Pedagog - tarbiyachilarining oliy ta’lim tizimida egallagan bilim, ko’nikma, malaka hamda kasbiy kompetentsiyalari uning amaliy pedagogik faoliyatlarida takomillashadi. SHuning uchun ham pedagog - tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini ta’minlash oliy ta’lim jarayonida alohida ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.**

1. Ahmedova N.Q. Rahbar va pedagog xodimni ma’naviyatini oshirish mukammal shaxs kamolotini ta’minlash omilidir // Milliy g’oya – ilmiy tadqiqotlarning nazariy metodologik asosi. Ilmiy to’plam, IV kitobi. Toshkent, 2009 yil.
2. Bazarov T.Yu. Upravlenie personalom razvivayuo’eysya organizatsii. – M.: Nauka, 1996. – S.12-17.
3. Vazina K.Ya., Petrov Yu.N., Belilovskiy V.D. Pedagogicheskiy menedjment. – M.: Pedagogika, 1991. – 136s.
4. Valijonov R., Qobulov O., Ergashev A. Menejment asoslari. –Toshkent: Sharq, 2002. – 207 b.
5. Derzkova N.P. Didakticheskie usloviya formirovaniya effektivnogo stilya rukovodstva obrazovatelg’nqmi uchrejdeniyami.:Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. – M., 1999. – 22s.
6. Djuraev R.X., Turg’unov S.T. Ta’lim menejmenti: O’quv qo’llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.